



## MENEJMENT PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.

**Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)  
"Renessans ta'lim universiteti" katta o'qituvchisi.

**Nurulloyev Toxir Nutfullouevich**

"Renessans ta'lim universiteti" Amaliy psixologiya  
yo'nalishi 4 – bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18952334>

### **Annotatsiya:**

Maqolada menejment psixologiyasining predmeti va vazifalari, uning nazariy asoslari hamda boshqaruv jarayonida inson omilining o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, rahbar va ijrochilar o'rtasidagi munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit, motivatsiya, kommunikatsiya va nizoli vaziyatlarni boshqarish kabi ijtimoiy-psixologik omillar yoritilgan. Menejment psixologiyasining umumiy, ijtimoiy, mehnat va muhandislik psixologiyasi kabi sohalar bilan o'zaro bog'liqligi hamda jamoada psixologik moslik va samarali hamkorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

### **Kalit so'zlar:**

menejment psixologiyasi, boshqaruv, rahbar va ijrochi munosabatlari, psixologik muhit, motivatsiya, kommunikatsiya, jamoa, shaxslararo munosabatlar, nizoli vaziyat, boshqaruv samaradorligi.

Menejment zamonaviy ishlab chikarishni boshkarish, rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish, shuningdek ishlab chiqarishga rahbarlik qilish uni tashkil qilish demakdir. Mo'ljallangan maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqarishni boshqarish usullari, shakllari, vositalari yig'indisidir. Menejment so'zining lug'aviy ma'nosi inglizcha boshqarish, mudirlik, tashkil etish ma'nolarini anglatadi.

Menejer inglizcha boshqaruvchi, korxonalar, kompaniyalar egalari bo'lmagan yollanma malakali boshqaruvchidir. Ular ma'rifatli jamiyatdagi maxsus ijtimoiy qatlamni tashkil etadi.

Hozirgi davrda menejmentning tarkibiy qismlari uning mohiyati va mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa menejment psixologiyasining mexanizmlarini tadqiqot qilish muammolari, uning nazariy asoslari, yetakchi funksiyalari o'zaro aloqadorligi, o'zaro munosabatlarning ob'ektivligi va sub'ektivligi hamkorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Agarda mazkur jarayonda «uyg'unlik» hukm sursa, jamoa yoki muayyan tizimda o'zaro tushunuv,





barqarorlik, mahsuldorlik ruyobga chiqadi. Bu ijtimoiy-psixologik hodisalar, holatlar, vaziyatlar, muammolar yechimi ko'p jihatdan menejment psixologiyasi materiallariga, uning ijtimoiy-amaliy tizimiga, tadrijiylikka bevosita bog'liq.

Menejment psixologiyasi fanini puxta egallash orqaligina har bir insonda yuksak his-tuyg'ular, mehnatga ijobiy munosabat, ijtimoiy faollik, komfort hislarini shakllantirish mumkin. O'z-o'zini anglash milliy ong kabi yuksak tuyg'ularni qaror toptirish orqali mehnatsevar, vatanparvar kishilarni shakllantirish joiz. Bozor iqtisodiyotining birmuncha murakkab mexanizmlari qay yo'sinda ishlashini tushunib yetish, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olish uchun nimalar qilish kerakligini anglash, unga to'g'ri yo'l topa bilish mumkindir.

Hozirgi ijtimoiy muhitda shaxslararo munosabatlar silsilasida «birdamlik ruhi» va «mushtaraklik tuyg'usi» singari hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishning samarali usullari va uslublari psixologiya fanida ishlab chikilgan. Xuddi shu nuqtai-nazarga binoan ijrochi, amalga oshiruvchi inson fikrlashga ojiz robot emas, balki individual maqsad va manfaatlarga erishish yo'lida o'zining muayyan ijtimoiy ehtiyojlari majmuasiga ega bo'lgan o'ziga xos shaxs sub'ektdir, degan ta'rifni berish bilan birga u ziddiyatli zot ekanligiga asoslanib menejerga, yangi boshqaruvchiga jiddiy e'tibor qaratishni hamda uning jamoadagi faoliyati darajasiga asoslanib jamoaning unga nisbatan munosabatini shakllantirish va aksincha holatlarni o'rganishga e'tibor ortayotganligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda menejment (boshqaruv) to'g'risida quyidagi umumiyat tomonidan qabul qilingan fikrlar mavjud bo'lib, quyida uning shakliy ifodasi berilgan.

Boshkaruv menejment. Menejment psixologiyasi fanini o'qitishning maqsadi psixolog, sotsiolog talabalarda boshqarishning o'ziga xos murakkab muammolarini bilishga nisbatan intilishni kuchaytirish, ularda amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyok uyg'otishga qaratilgandir. Aynan, yukorida bayon qilingan holatlar menejment nazariyasi fanini tashkil etuvchi umumiy tushunchalar majmuasidir.

Jahon psixologiyasi fanida xalk xo'jaligi tarmoqlarini tashkil qilish va ularni boshkarish jarayonida «inson-texnika» tizimidan tashqari «inson- inson» munosabatlari muhim ahamiyat kasb etishi, uning tahlili ko'p jihatdan ijtimoiy psixologiyaning empirik tajriba ma'lumotlariga asoslanishi muayyan darajada yoritilgan. Amaliy, tadbiqiy xususiyatli ma'lumotlar menejer shaxsiyatining gultojisidir. Menejment psixologiyasi ishlab chiqarish jamoalari hamda moddiy mahsulot yaratmaydigan muassasalar xodimlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan





boshqarish qonuniyatlarini o'rganuvchi muhim ilmiy sohadir. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borishda psixologiya fanining metodologiyasi va xalq xo'jaligini boshqarishning umumiy qonuniyatlariga tayanish faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

«Boshqaruv» yoki «menejment» tushunchasi psixologiya faniga kibernetika va boshqaruv tizimlari orqali kirib kelgan bo'lib, u insonning xulqi, ruhiy holati, bilish jarayonlari hamda jamoaviy faoliyatni boshqarish bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Hozirgi davrda menejment psixologiyasi «inson-inson», «inson-jamoa», «jamoa-inson» va «jamoa-jamoa» munosabatlarining psixologik jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratadi.

Bu fan doirasida rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit, nizoli vaziyatlarning oldini olish va ularni oqilona hal etish, shuningdek mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tadqiq qilinadi. Bunda empirik va nazariy-metodologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Menejment psixologiyasi boshqaruvning ijtimoiy-tarixiy tamoyillariga asoslanadi. Ular qatoriga demokratik detsentralizm, yakkaboshchilik prinsipi, siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy rahbarlikning birligi, boshqaruvning rejaliligi, ommaning boshqaruv jarayonida faol ishtirok etishi, xodimlarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish hamda kadrlar tanlash va joylashtirishda psixodiagnostikadan foydalanish kabi tamoyillar kiradi.

Menejment psixologiyasining predmeti haqida turli qarashlar mavjud bo'lsa-da, umumiy ma'noda u rahbarlar, xodimlar va jamoalar o'rtasidagi psixologik munosabatlar hamda hamkorlik faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Shu jihatdan mazkur fan tashkilot va muassasalar faoliyati samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ko'rinib turibdiki, ularning hech biri menejmentning psixologik mohiyati va uning tadqiqot ko'lamini ochish, talqin qilish qudratiga ega emas, xuddi shu boisdan bunday ijtimoiy psixologik xolat o'z navbatida ilmiy izlanish va tekshirish ko'lamini keskin toraytirishga olib keladi, oqibat natijada sohaning mavqei, uning xalk xo'jaligidagi roli yanada pasayadi. Hamkorlik faoliyatining mazmuni, uning bosqichlari, shaxslararo munosabatlarning o'zaro ta'sir xususiyatlari, insonda ijtimoiylashuvning tezlashuvi, ongning rivojlanish bosqichlari «inson- texnika» tizimi bilan bog'lik, bir talay muammolar tadqiqot predmetidan chetda qolib ketish xavfi tug'iladi.

Menejment psixologiyasi doirasida rahbar va jamoa o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq o'rganish maqsadida qator ijtimoiy-psixologik omillar





tahlil qilinadi. Bu omillar hamkorlik faoliyatida shaxsning o'рни, rahbar va ijrochilar o'rtasidagi munosabatlar hamda jamoadagi psixologik muhitni shakllantiruvchi jarayonlar bilan bog'liqdir.

Avvalo, hamkorlik faoliyatida shaxsga oid muammolar, shaxs va guruhning motivatsion hamda emotsional xususiyatlari, shuningdek bilish jarayonlariga oid munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, shaxs va jamoaning nazorat qilish mexanizmlari, ularning o'ziga xos jihatlari va o'zaro ta'sirini o'rganish menejment psixologiyasining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Menejer faoliyati ham o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, u jamoada tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Menejning statusi, roli, huquq va vazifalari, boshqaruv funksiyalari, shuningdek boshqaruv uslubi va uning turlari jamoadagi munosabatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda kommunikatsiyaning turli shakllari, rasmiy va norasmiy muloqot mexanizmlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoadagi shaxslararo munosabatlar, jamoatchilik fikri va jamoaviy kechinmalarning o'zaro ta'siri, shuningdek munosabatlar ierarxiyasi («men», «sen», «u», «biz», «siz», «ular») ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bunda o'zini-o'zi hurmat qilish, muvaffaqiyatga intilish va talabchanlik darajasi ham muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, jamoada psixologik muhitni ta'minlash, o'zaro moslik va jipslikni shakllantirish menejment samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Menejment faoliyatining funksional tahlili, uning tuzilishi va tarkibiy qismlarining o'zaro uyg'unligi hamda muhandislik va psixologik jihatlari boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga yordam beradi.

Menejer shaxsiga qo'yiladigan talablar, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va kasbiy qobiliyatlari ham boshqaruv samaradorligini belgilaydi. Shu bilan birga, ijrochilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, «rahbar-ijrochi» munosabatlarining psixologik jihatlari to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Menejment psixologiyasida ijtimoiy-psixologik holatlarni boshqarish, nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish usullarini ishlab chiqish ham alohida o'rin tutadi. Nizo, nizoli vaziyat va mojaro o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish jamoada barqaror psixologik muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

Menejment psixologiyasi rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, jamoaviy faoliyatning psixologik qonuniyatlari hamda samarali boshqaruvni ta'minlovchi shaxsiy va ijtimoiy omillarni o'rganuvchi muhim ilmiy sohadir.





Yuqorida qayd etilgan muammolar asosida menejment psixologiyasining predmetini aniqlash mumkin. Menejment psixologiyasi hamkorlik faoliyati jarayonida shaxsning xulqi va ongiga guruh yoki jamoa tomonidan ko'rsatiladigan psixologik ta'sir xususiyatlarini, menejer va ijrochi o'rtasidagi muomala maromini, shaxslararo munosabatlar bosqichlari hamda emotsional holatlarni tadqiq etadi. Shuningdek, u rahbar faoliyatida sog'lom psixologik muhitni ta'minlash, boshqaruv uslubi va uning mexanizmlarini o'rganish bilan ham bog'liqdir.

Mazkur fanning predmeti tarkibiga boshqaruv jarayonida amaliy va nazariy ko'nikmalarni shakllantirish, idora qilish qonuniyatlarini aniqlash, jamoada psixologik moslik va jipslikni ta'minlovchi omillar hamda mexanizmlarni tadqiq etish kabi masalalar ham kiradi. Shu sababli menejment psixologiyasi predmetini cheklash uning ilmiy imkoniyatlarini sun'iy ravishda toraytiradi.

Menejment psixologiyasi umumiy psixologiya fanining boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Jumladan, u umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yosh psixologiyasi, kichik guruhlar psixologiyasi va muomala psixologiyasi kabi sohalar bilan yaqin aloqada tadqiqot olib boradi. Bu integratsiya psixologik holatlar va munosabatlarni tahlil qilish, jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, hamkorlik faoliyati samaradorligini oshirish hamda nizoli vaziyatlarning oldini olish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, menejment psixologiyasi inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy omillari, shaxsning ontogenetik rivojlanish xususiyatlari hamda jamoadagi murakkab munosabatlar tizimini ham qamrab oladi. Insonning ichki regulyativ funksiyalari – motiv va motivatsiya, his-tuyg'ular, murakkab kechinmalar, shuningdek bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, intellekt va ijodiyot), ong rivojlanishi, diqqat va nutq kabi omillar boshqaruv jarayonini samarali tashkil etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, hamda shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, irsiy omillar, ijtimoiy muhit va insonning ichki psixologik imkoniyatlari ham menejment samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Menejment psixologiyasi rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, jamoaviy faoliyatning psixologik qonuniyatlari hamda samarali boshqaruvni ta'minlovchi nazariy va amaliy bilimlar tizimini o'rganuvchi muhim ilmiy sohadir

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Toshev A., Norqobilov A. Boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent, 2015.





4. Yuldashev M. Menejment asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014.
5. Друкер П. Эффективный руководитель. – Москва: Вильямс, 2004.
6. Кричевский Р.Л. Психология управления. – Москва: Гардарики, 2003

